

AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI

Abdumajidov Ibodullo Muxammadxon o'g'li
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada yaqin yillar ichida agroturizm sohasini rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan ishlar ularning istiqbollari hamda rivojlangan davlatlar tomonidan sayyohlarni qishloq xo'jalik sohasiga jalb qilish uchun qo'llaniyotgan ishlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: agroturizm, istiqbollari, qishloq xo'jaligi, dehqonlar, Kosonsoy.

Аннотация: В статье представлена подробная информация о перспективах развития агротуризма в ближайшие годы, а также о мероприятиях, используемых развитыми странами для привлечения туристов в аграрный сектор.

Ключевые слова: агротуризм, перспективы, сельское хозяйство, фермеры, Касансай.

Annotation: The article provides detailed information about the prospects for the development of agrotourism in the coming years, as well as the activities used by developed countries to attract tourists to the agricultural sector.

Key words: agrotourism, prospects, agriculture, farmers, Kosonsoy.

Kirish: Inson zoti sayyohat qilishga bo'lgan qiziqishi va maqsadlari turli xildir. Tabiatga bo'lgan mehri, qishloq xo'jaligi xayotiga bo'lgan qiziqishi va ularda mustaqil ishtirok etish istagi bor sayyohlar turi agroturizmga taqaladi.

Agroturizm asosan boshqa hududlardan tashrif buyuruvchilar orqali chekka hududlarda istiqomat qiladigan dehqonlarning farovonligini, iqtisodiy o'sishini rag'batlaniruvchi omil sifatida qaraladi. Shuningdek agroturizmni rivojlantirish orqali O'zbekiston Respublikasi hududida turistlarni tashrifini ko'paytirish, tashrif vaqtini uzaytirish va xalqimizning an'anaviy qishloq xo'jaligida qo'llaydigan usullarini dunyoga tanitish ehtimoli katta hisoblanadi¹, shu bilan birga mahalliy turistlar uchun dam olishning yangi turlarini tadbiq etish maqsadida turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan agroturizmni rivojlantirish ustida ishlar olib borilmoqda.

Rivojlangan davlatlarga borgan turistlar ma'lum bir vaqt davomida qishloq joylarida yashash asnosida mahalliy odamlar madaniyati, turmush tarzi, borgan joyidagi odamlarni urf-odatlari bilan yaqindan tanishishadi, qishloq xo'jalik ishlarida faol ishtirok etish orqali sayyohlarning qiziqishi ortadi va bu o'sha hududlarning

¹ Iroda Shermamatovna Baymuradova AGROTURIZM: O'ZBEKISTONDAGI FERMERLAR VA MAHALLIY AHOLI UHUN POTENSIAL IMKONIYATLAR // Academic research in educational sciences. 2022. №Conference . URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/agroturizm-o-zbekistondagi-fermerlar-va-mahalliy-aholi-uchun-potensial-imkoniyatlar> (дата обращения: 05.04.2024).

istiqboliga yaxshi ta'sir qiladi. Ijtimoiy tarmoq keskin rivojlanib borayotgan davrda sayyoohlar doimiy ravishda qilayotgan ishlarini ijtimoiy tarmoqga joylab borishlari ham juda foydalidir, chunki bu holatda qishloq xo'jaligi ishlariga ko'plab turistlarni jalg etish va iqtisodiy yetuklikga erishish mumkin . Masalan, Buyuk Britaniyada fermerlarning 60 foizi turizm sohasidan tizimli ravishda daromad olishni yo'lga qo'yishgan, o'rtacha yillik daromad 10-50 ming AQSh dollarini tashkil qiladi. Lekin ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarda agroturizmning mavsumiyligi salbiy ta'sirini ko'rsatadi².

Tadqiqotchilarning o'tkazgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra Karlsbaddagi Gul dalalariga tashrif buyuruchilar turizmning bu turi Kaliforniya shtatini Karlsbad shahriga yaxshigina ijobiy ta'sir ko'rsatganini aniqladilar. Bu esa gul dalalariga tashrif buyuruvchilardan tushgan sof foyda taxminan 2,3 million dollarni, San-Diego okrugida esa taxminan 7,76 million dollorni tashkil etganini ko'rsatdi.

Namanganda har yili gullar festivali o'tkaziladi. Prezidentimizni Namangan shahriga tashriflari doirasida gulchilikni yanada rivojlantirish va gullar festivalini xalqaro miqyosga olib chiqish to'g'risidagi qaror va tavsiyalari bois Namanganda katta ishlar olib borilmoqda . Namangandagi "Gullar festivali" da qatnashib tayyor etishtirilgan gullar ko'rgazmasiga ko'plab mahalliy, xorijiy gulchi dehqonlar va ko'plab chet ellik va mahalliy sayyoohlar yuqori qiziqishlar bilan Namangan viloyatiga tashrif buyuradilar.

Hozirigi kunda har bir soha rivoji uchun juda katta investitsiya loyihalari imzolanmoqda. Masalan, LexUz on-line web-saytida yozilishicha turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida Toshkent shahrida "Nyatt Regency Tashkent" va "Lotte City Notel Tashkent Palace" brendli mehmonxonalar, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-Ko'ngilochar bog'larning, "Angren-Pop" yo'nalishli temir yo'l, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektlashtirilgan temir yo'llar barpo etildi.

Bu qurilgan va qurilayotgan yo'llar agroturizm uchun juda katta foyda keltira oladi deb hisoblayman. Chunki yurtimizda chekka hududlardayam turizmni rivojlanishiga to'siq deb qaraladigan muammolardan biri bu o'sha hududgacha bo'lgan masofalar va yo'llarning notekisligidir. Yurtimizdagi chekka hududlardagi Agroturizm sanoatini yetarlicha o'rganib chiqilsa u yerlarda sayyoohlarni yetarlicha jalg qila oladigan mashg'ulot turlari va sabablar bisyordir. Bu esa investitsion loyihalarni tadbiq etilishi juda katta foyda berilishi mumkin.

Namangan viloyati Kosonsoy shahri shimoliy qismida joylashgan Qoratog' etaqlari o'rtacha 790 m balandlikda joylashgan. Janubidan Namangan shahri, sharqdan viloyatning Yangiqo'rg'on, janubi-g'arbdan Chust tumanlari, shimoliy va g'arbdan Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradoshdir. Kosonsoy tumani tog'li hudud

² https://www.researchgate.net/publication/366985911_Turizm_geografiasi_Ukuv_kullanma

zonasiga kiradi va tabiiyki yuqorida keltirganimizdek toza havoni juda qadrlovchi, tabiat shaydosi va qishloq xo'jaligi ishlariga qiziqish bildiradigan turistlar uchun qulay marshrunlardan biridir. Tuman aholisining 70,8% qishloqlarda, 29,2% shaharda (Kosonsoy) istiqomat qiladi. Qishloq xo'jaligida yetakchi tarmoq — paxtachilik, g'allachilik va oliy navli uzum turlari yetishtirish bilan shug'ullanishadi va uzum terish paytida sayyoohlар ulkan ishtiyoq bilan mahalliy fermerlarga yordam berishlari mumkin. Shuningdek, chorvachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik ham rivojlangan, ko'plab turistlar sigir sog'ilishiga ham katta qiziqish biliradilar. Kosonsoy tumanida ichki turizm yaxshi rivojlanagan, tumanga har doim ko'plab mahalliy sayyoohlар tashrif buyurishadi. Tabiat qo'ynida joylashgan oromgohlar, dam olish maskanlari doim tashrif buyuruvchilarga xizmat qiladi. Kosonsoyda qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlanagan, shuning uchun tuman hokimligi tomonidan 2022-yil turizmni Kosonsoyda rivojlantirishni samarali yo'llari tuzib chiqildi, unga ko'ra yil yakuniga qadar "oilaviy uy menmonxona"lari 70 taga yetkazilishi va yana ko'plab chora tadbirlar ko'zda tutilgan.

Yurtimizda bunaqa joylar judaham ko'p, turaperatorlar tomondan turistik paket tuzilayotganda ko'proq sayyoohlarni agrar sohamizga ijodkorona yo'llar bilan qiziqtirishi lozim. Hozirgi kunda ko'plab odamlar Shahar hayotidan zerikishgan, sifatli reklama va tog'ri yondashuv bilan odamlarni agroturizmga jalb qila olamiz.

Turistlarni agroturizmni tanlashlari sabablari bisyor sananladi. Bularidan bir nechtasini sanab o'tishimiz mumin:

- Agroturizm eng arzon turizm yo'nalishlaridan biridir.
- Tabiatning jozibadorligi va havoning tozaliroqligi sayyoohlarning jismonan ham ruhan dam olishlari uchun eng to'g'ri joydir.
- Agroturizm tadbirkorlar uchun ham ortiqcha sarmoya talab qilmaydi
- Mahalliy va qayta ishlanmagan yeguvliklardan iste'mol qilish
- Fermerlar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib yana ko'plab mashg'ulotlarni taklif qilishadi.

Agroturizm dehqonlarni yaxshi daromadga olib chiqqa oladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki turizmning ushbu turida uy xo'jaliklari sayyoohlarga turli xizmatlar yo'nga qo'ya olishi bilan birga davlat ro'yxatidan o'tishlari yoki yuridik shaxs bo'lishlari umuman shart emas va bu orqali ular³ soliqlardan to'laqonli ozod shaxsdirlar. Bundan tashqari o'z – o'zlarini band qilgan dehqonlar ham o'zlarining asosiy vazifalaridan oladigan haqdan tashqari qo'shimcha daromad olishadi va kerakli mehnat stajiga ega bo'ladilar ham.

Yurtimizda chekka hududlarda turli sabablar tufayli qarovsiz qolgan ko'plar yerlar mavjud bo'lib ulardan foydalanishga katta to'siq bo'lib turgan narsa bu o'sha

³ Арцыбашев Д.В., Алюшин Р.Е., Воинова Н.Е. Предпосылки развития агротуризма на территории курской области // Экспериментальные и теоретические исследования в современной науке: сб. ст. по матер. VIII междунар. науч.-практ. конф. № 8(8). – Новосибирск: СибАК, 2017. – С. 25-31

maydonlardagi suv tanqisligi hisoblanadi. Agarda ushbu yerlarga investitsiya kiritilib, tomchilab sug'orish usuli tatbiq etilsa ijobiy natijalarga erishishimizga ishonaman. Bu yerlarni xusiylashtirish yo'li ancha davlatimizga foyda keltiradi. Mamlakatimizni 21,2 foizi tog'liklar va tog'li hududlarga kiradi va bu shuni ko'rsatadiki tog'li hudularda ko'proq eko zonalar, tog'da yashaydigan hayvonlar uchun qo'rg'onlar hamda dam olish maskanlarini tashkil qilish ko'proq foyda keltiradi.

Manbalar:

https://uz.wikipedia.org/wiki/Gullar_festivali

<https://cyberleninka.ru/article/n/agroturizm-o-zbekistondagi-fermerlar-va-mahalliy-aholi-uchun-potensial-imkoniyatlar/viewer>

<https://kun.uz/news/2018/05/25/agroturizm-uzbekistonda-turizm-soasidagi-angi-junalis?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F05%2F25%2Fagroturizm-uzbekistonda-turizm-soasidagi-angi-junalis>

<https://lex.uz/docs/-4143188?ONDATE=15.01.2022>

https://uz.wikipedia.org/wiki/Kosonsoy_tumani

<https://inlovewithalbania.com/agritourism-farms-in-albania/>